Europa Revue Journal
Vol. 6 No. 6 (2026) Published June 30, 2026

SYNONYMS USED IN THE POETRY OF KHOSIYAT BOBOMURODOVA

Safarova Zenira

Master's Student, Uzbek Language and Literature Program, Navoi State University

Abstract

This article analyzes the characteristics of synonym usage in the poetry of Khosiyat Bobomurodova and examines their artistic and aesthetic functions. It explores the semantic nuances of synonymous lexical units employed in the poet's works and highlights their role in creating artistic imagery and enhancing poetic expressiveness. Furthermore, the study investigates the significance of synonyms in conveying the characters' psychological states and emotional experiences, enriching the emotional and expressive quality of the text, and eliminating unnecessary lexical repetition. The analysis is supported by relevant examples from the poet's literary works.

Keywords

synonyms, poetic text, semantic nuances, emotionality, style.

XOSIYAT BOBOMURODOVA SHE’RIYATIDA QO`LLANGAN SINONIMLAR

Safarova Zenira

Navoiy davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xosiyat Bobomurodova she'riyatida sinonimlarning qo‘llanish xususiyatlari hamda ularning badiiy-estetik vazifalari tahlil etilgan. Shoira ijodida uchraydigan sinonimik birliklarning ma'no nozikliklari yoritilib, ularning badiiy obraz yaratish va poetik ta'sirchanlikni kuchaytirishdagi o‘rni ochib berilgan. Shuningdek, sinonimlarning qahramon ruhiy holati va hissiy kechinmalarini ifodalash, matnning emotsional-ekspressivligini oshirish hamda uslubiy takrorlarni bartaraf etishdagi ahamiyati misollar asosida talqin qilingan.

Tayanch so`zlar: sinonimlar, she’riy matn, ma'no qirralari, emotsionallik, uslub.

Аннотация: В данной статье анализируются особенности употребления синонимов в поэзии Хосият Бобомуродовой, а также их художественно-эстетические функции. Рассматриваются смысловые оттенки синонимических единиц, используемых в творчестве поэтессы, и раскрывается их роль в создании художественного образа и усилении поэтической выразительности. Кроме того,

на основе конкретных примеров исследуется значение синонимов в передаче психологического состояния и эмоциональных переживаний героев, повышении эмоционально-экспрессивной выразительности текста, а также в устранении неоправданных лексических повторов.

Ключевые слова: синонимы, поэтический текст, смысловые оттенки, эмоциональность, стиль.

KIRISH. Badiiy adabiyotda til vositalaridan unumli va joyida foydalanish ijodkorning individual uslubini hamda uning so‘z san’atkorligi darajasini belgilovchi asosiy me’zonlardan biri hisoblanadi. Leksik qatlamning eng boy va serqirra lisoniy hodisasi bo‘lmish sinonimiya (ma’nodoshlik) ijodkorning so‘z boyligi, badiiy tafakkur doirasi va uslubiy mahoratini yorqin namoyon etadi. Tildagi sinonimlar shunchaki ma’nodosh so‘zlar yig‘indisi bo‘lmay, balki matnga qo‘shimcha emotsional-ekspressiv bo‘yoq berish, nutqiy takrorlarning (tautologiya) oldini olish hamda fikrni kitobxonga eng aniq va ta’sirchan tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Taniqli tilshunos olim A. Hojiyev ta’kidlaganidek, "Sinonimlar tushunchalarni farqlash, nutqni boyitish, unga joziba va turli ma’no nozikliklarini bag‘ishlash uchun xizmat qiluvchi qudratli vositadir". [1] Badiiy matn poetikasida sinonimlarning tutgan o‘rni va ularning uslubiy funksiyalari o‘zbek tilshunosligida hamisha diqqat markazida bo‘lib kelgan. Xususan, badiiy matn tahlili va lingvopoetika sohasining yetakchi mutaxassisi M. Yo‘ldoshev badiiy uslubda sinonimik qatorlar va kontekstual ma’nodoshlikning lisoniy estetika yaratishdagi ahamiyatini yuqori baholaydi. [2] Shuningdek, adabiy til va badiiy mahorat masalalarini tadqiq etgan B. Umurqulov ham ijodkorning so‘z tanlash imkoniyatlari aynan sinonimlar boyligi bilan bog‘liqligini ko‘rsatib o‘tgan. [3]

Shoira Xosiyat Bobomurodova ijodi o‘zining xalqchilligi, tilining sodda, samimiy va ayni paytda badiiy yuksakligi bilan ajralib turadi. Ijodkorning lirik va nasriy asarlarida sinonimlardan foydalanish mahorati o‘ziga xos milliy bo‘yoqdorlikka ega. Shoira qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari, tabiat tasviri hamda ijtimoiy-falsafiy qarashlarini ifodalashda sinonimik qatorlarning nozik ma’no va uslubiy qirralaridan unumli foydalanadi. Uning asarlarida so‘zlarning shunchaki

lug‘aviy ma’nodoshligi emas, balki matn ichida tug‘iladigan kontekstual sinonimiya hodisasi ham yetakchi o‘rin egallaydi.

Iste’dodli shoira Xosiyat Bobomurodova ijodida sinonimlarning bir turi hisoblangan leksik ma’nodoshlikni uchratamiz.

Kelma! Kelmasliging bermasa azob,

Kelmay ham umringdan o'taversa kun.

Qalb degan kishandan bo'lolsang ***ozod****,*

Yig'lamasang ***erkin*** *bo'lganing uchun.* [4]

Mazkur she'riy parchada muallif insonning ruhiy holatini ifodalashda sinonimik birliklardan mahorat bilan foydalangan. Xususan, *"ozod"* va *"erkin"* leksemalari “*o’z erki, huquqiga ega holda*” ma’nosi bilan o'zaro sinonim. O’TILda berilgan izohlar mazkur so’zlardagi ma’no farqlarini ko‘rish mumkin:

Ozod-2.Qullikdan ozod etilgan,erkinlikka chiqqan, asoratdan qutilgan.

Erkin - har qanday to`siq, g`ov, monelikdan xoli bo`lgan, erk-ixtiyori o`zida bo`lgan [5]. Ushbu parchada "ozod"so`zi kishining qalbini kishanlab turgan ichki bog'liqliklardan, ruhiy qaramlikdan xalos bo'lish holatini ifodalasa, "erkin" leksemasi ana shu ozodlik natijasida yuzaga keladigan ruhiy yengillik va mustaqil yashash imkoniyati ma’nosini anglatadi. Shoir avval insonning qalbi kishanlardan ozod bo'lishini, keyin esa uning chin ma'noda erkin yashashini ta'kidlaydi. Bu ketma-ketlik sinonimlarning oddiy takrori emas, balki ma'no gradatsiyasini yuzaga keltirib, fikrning ta'sirchanligini oshiradi.

*Zaminda hammaning haqqi bor,****mittim****,*

*Osmonda hammaning haqqi bor,****erkam****.*

“Haqqing yo`q”dedilar,men titrab ketdim,

Men qanday osuda yashayin,shu dam! [4:22]

Qiziga bag`ishlanib yozilgan **“Ko`zlari o`t qizchamga**” she’rida *"mittim"* va *"erkam"* so‘zlarini kontekstual sinonimlikni hosil qilgan va lirik nutqning samimiyligi va emotsional ta'sirchanligini kuchaytirgan: "Mittim" so‘zi kichiklik, ojizlik va mehr bilan erkalash ma'nolarini ifodalaydi. Unda himoya qilish, asrash va mehr ko‘rsatish semalari ustunlik qiladi. "Erkam" esa sevimli, ardoqli, suyukli insonni anglatib, mehr-

muhabbat va qalbiy yaqinlikni ifodalovchi murojaatdir. Mazkur birliklar umumiy "aziz, suyukli inson" semasi asosida sinonimik qatorni tashkil etadi. Biroq "mittim" so‘zida kichiklik va himoyaga muhtojlik ma'nosi kuchliroq sezilsa, "erkam" so‘zida mehr va ardoqlash ma'nosi ustun turadi.

Xosiyat Bobomurodova ushbu parchada "mittim – erkam" sinonimik qatoridan badiiy-estetik vosita sifatida foydalanib, she'rning poetik ta'sirchanligini sezilarli darajada kuchaytirgan. Bu esa shoira she'riyatida sinonimlarning uslubiy imkoniyatlari keng va serqirra ekanligini tasdiqlaydi.

Bitmagan she'rimning intiq satrida,
Sening shu'lalaring kezib yuribdi.
Hid*laring totliki, gullar atrida,*
Bu ***bo‘y*** *topilmagay, sezib turibman!* [4:18]

Ushbu she'riy parchada *hid* va *bo‘y* so‘zlari “*narsa va predmetlarning hidlash organlariga ta’sir etib, sezgi uyg’otish xususiyati [*1. 270] ma’noisda sinonimik qatorni tashkil etadi. Ikkala leksema ham biror narsa taratadigan iforni bildiradi, ammo ularning ma'no nozikliklarida farq mavjud. ***Hid*** so‘zi keng ma'noga ega bo‘lib, yoqimli ham, yoqimsiz ham iforni anglatishi mumkin. ***Bo‘y*** esa asosan yoqimli, xush iforni ifodalash uchun qo‘llanadi va badiiy uslubda estetik ma'no kasb etadi. Shu sababli *bo‘y* so‘zi *hid*ga nisbatan emotsional-ekspressiv jihatdan kuchliroq hisoblanadi. Shoir avval "hidlaring totliki" deb lirik qahramonning yoqimli iforini tasvirlaydi. Keyingi misrada esa "Bu bo‘y topilmagay" deya aynan shu iforning betakrorligini ta'kidlaydi. Bu yerda bo‘y so‘zining tanlanishi tasvirning ta'sirchanligini oshirib, oddiy hiddan ko‘ra nafis va noyob ifor nazarda tutilayotganini anglatadi.

To‘xta, to‘xta ***tomchi****, to‘kilma, axir,*
Qatra*, o‘tinaman, to‘xta bir nafas.*
Umringda bir marta bo‘lib qolgin sir,
Bardoshimdan senga yasayin qafas. [4:41]

“To`xta,tomchi”she’ridan olingan parcha shoira taxayyulining go`zal namunasidir. She'rning dastlabki misralarida qo‘llangan *tomchi* va *qatra* birliklari o‘zaro sinonimik munosabat hosil qiladi. Ikkala leksema ham suyuqlikning juda kichik

bo‘lagini ifodalasa-da, ularning uslubiy vazifasi bir xil emas. Shoira avval tomchi so‘zini qo‘llash orqali obrazni sodda va jonli tarzda tasvirlaydi. Bu birlik o‘quvchiga yaqin, tabiiy va kundalik nutqqa xos bo‘lgani uchun she'rning hissiy ohangini kuchaytiradi.

Keyingi misrada esa qatra leksemasining tanlanishi poetik ifodaning ta'sirchanligini oshiradi. Qatra so‘zi adabiy-badiiy uslubga xos bo‘lib, oddiy suv tomchisidan ko‘ra ko‘proq ramziy ma'no yuklaydi. Shoira shu so‘z orqali tomchini oddiy tabiiy hodisa emas, balki asrab qolishni istagan qimmatli mavjudot sifatida gavdalantiradi. Natijada sinonimik qator tarkibidagi ikkinchi birlik matnning emotsional va estetik qiymatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA. Xullas, Xosiyat Bobomurodova she'riyatida sinonimlar badiiy ifodaning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shoira ma'nodosh so‘zlardan o‘rinli va mahorat bilan foydalanib, lirik qahramonning ruhiy kechinmalari, hissiy holati hamda asarning g‘oyaviy mazmunini yanada ta'sirchan ifodalashga erishadi. Sinonimik birliklar nafaqat nutqning uslubiy rang-barangligini ta'minlaydi, balki she'rlarning estetik qimmatini oshirib, muallifning individual badiiy uslubini yorqin namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999. – 160 b.

2.Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 160 b.

3.Umurqulov B. Poetika va stilistika masalalari. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – 210 b.

4. Xosiyat Bobomurodova. Saylanma 1-jild. -Toshkent: G`afur G`ulom, 2021.- 22b

5.O`zbek tilining izohli lug`ati.2-jild.O`ZME.T.-2006.